O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ 60230100-2,02
2021-yil “___”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021-yil “___”_____

TURKIY ADABIYOTNING QADIMGI DAVRI (TANLOV FAN)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230100 – Filologiya va tillarni o’qitish (o’zbek tili)

SAMARQAND - 2021

Fan dasturi "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrasining 2021-yil 25 - may dagi 9 -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **dots. I. Sulaymonov**

Fan dasturi Filologiya fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil 26 - may dagi 8 -sonli bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi **prof. A.Pardayev**

Fakultet uslubiy kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

"Kelishildi"

SamDU o'quv ishlari

bo'yicha prorektor: **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
TAQD4006	2023-2024	6	6

Fan/modul turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Tanlov fan	O‘zbek	4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami (soat)
	Turkiy adabiyotning qadimgi davri	75	105	180

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talaba yoshlarni xalqimizning boy ma'naviy merosi bilan yaqindan tanishtirish, o'sib kelayotgan avlodni sog'lom e'tiqod va yuksak axloq sohibi bo'lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qoldirgan ma'naviy xazinani tom ma'noda qadrlashga o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi - eng avvalo, antik davr tarixchilari asarlari hamda Mahmud Koshg’ariyning «Devonu lug’otit turk», shuningdek, qadimgi turkiy xalqlar hayotiga bag’ishlangan kitoblarda keltirilgan adabiy matnlarni aniqlash;
- islomgacha bo’lgan turkiy xalqlarning diniy tasavvur va aqidalarini asoslash va ularning diniy e’tiqodlari badiiy adabiyotda qayd tarzda ifodasini topganligini yoritish;
- «Avesto» va «Bibliya» kabi muqaddas diniy kitoblar qadimgi turkiylar adabiyotiga ham o’z ta’sirini o’tkazganligini ko’rsatish;
- turkiy qavmlarning shakllanishi deyilganda miloddan avvalgi qaysi davrlar tushuniladi va bu davr adabiyotining o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- turkiy xalqlarning ilk davlatchilik tarixida muhim rol o’ynagan hukmdorlar va ularning badiiy adabiyotdagi obrazi, qadimgi rivoyat, afsona va qissalarning mavzu doirasi va unda ifodalangan qahramonlik ruhini belgilash;
- turkiy adabiyotda (Alp Er To’nga – Afrosiyob, O’g’uzxon, Qo’rqut ota, Manas, Madaay qora haqida) yaratilgan qadimiy dostonlarning g’oyaviy-badiiy qimmatini baholash;
- qabr toshlari dostonlari (tosh bitiklar)ning qahramonlik eposlari ruhiyatiga mos xususiyatlarini ochish;
- turkiy adabiyotning jahon xalqlari (shumer, yunon, german, gruzin, rus-slavyan) adabiyoti bilan mushtaraklik tomonlarini asoslash;
- «Alpomish» va «Odissey»ning g’oyaviy-badiiy qimmati va kompozisiyasidagi o’xshashlik xususiyatlarini qiyoslash;
- yunon va turkiy xalqlar og’zaki ijodida Tepako’zlar obrazi yaratilishining ilk manbalarini ko’rsatish;
- Prometey obrazi yaratilishining turkiy manbalarini asoslash;
islomgacha bo’lgan turkiy adabiyotning o’ziga xos janr xususiyatlarini asoslash va janrlarning turkiycha atamalarini aniqlashdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

TURKIY ADABIYOTNING QADIMGI DAVRI FANIGA KIRISH

1-mavzu. Fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Turkiy adabiyotning qadimgi davrini o'rganish manbalari va muammolari.

Mazkur ixtisoslik kursida ko'zda tutilgan asosiy maqsad islomgacha bo'lgan turkiy adabiyotning mavjudligini, ya'ni turkiy adabiyot o'z antik davriga ega ekanligini asoslash hamda bu adabiyotning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berishdir. antik davr tarixchilari asarlari hamda Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», shuningdek, qadimgi turkiy xalqlar hayotiga bag'ishlangan kitoblarda keltirilgan adabiy matnlarni aniqlash. Islomgacha bo'lgan turkiy xalqlarning diniy tasavvur va aqidalarini asoslash va ularning diniy e'tiqodlari badiiy adabiyotda qayd tarzda ifodasini topganligini yoritish. Turkiy xalqlarning ilk davlatchilik tarixida muhim rol o'ynagan hukmdorlar va ularning badiiy adabiyotdagi obrazi, qadimgi rivoyat, afsona va qissalarning mavzu doirasi va unda ifodalangan qahramonlik ruhini belgilash. Islomgacha bo'lgan turkiy adabiyotning o'ziga xos janr xususiyatlarini asoslash va janrlarning turkiycha atamalarini aniqlash.

2-mavzu. Qadimgi diniy e'tiqodlar va ularning manbalari: Ko'k tangri, shomoniylik, moniylik, buddaviylik, zardushtiylik, nasroniylik. Diniy e'tiqod va badiiy ijod

Qadimgi turkiy xalqlar uzoq tarixiy o'tmishida ko'p diniy aqida va ta'limotlarga e'tiqod qo'yishi, shu sababli ham ularning islomgacha bo'lgan davrdagi diniy e'tiqodlarini faqat bir din ta'siri yoki qobig'ida tasavvur etib bo'lmasligi, turkiy xalqlarning har bir diniy e'tiqodi hamda marosimlari ularning og'zaki, keyinchalik yozma adabiyotida ham o'z ifodasini topishi. Zotan, bunday tamoyil jahon xalqlari turmush madaniyatida ham chuqur ildiz otgani, har bir diniy ta'limotning ifoda vositasi so'z, ifoda shakli badiiy ijodning ma'lum bir janri hisoblanishi.

Diniy shakl va aqidalar hamma davrlarda insonning ma'naviy-axloqiy dunyosini shakllantirishga xizmat qilgani. Qadimgi turkiylar e'tiqod qo'ygan dinlar ham bundan mustasno emasligi.

3-mavzu. Jahon tamadduni tarixi va Turkiy adabiyotning qadimgi davri

Skif-kimmerlar yashagan davr adabiyoti va madaniyati shakllanganligi bilan jahon xalqlari tarixida alohida o'rin egallagani, ular yaratgan adabiy sujetlar antik davrdagi ko'plab xalqlarning adabiyotiga ko'chib o'tgani, ayrim syujetlarda tipologik o'xshashliklar mavjudligi yoki ularning hukmdorlari, qahramonlari haqida boshqa xalqlar adabiyotida ham bir necha, hatto turkum asarlar yaratilgani shundan dalolat berishi. Qadimgi turkiy xalqlarga xos adabiy

syujetlarning jahondagi turli xalqlar adabiyotiga yaqinligi, badiiy g'oya va obrazlarni yaratishdagi mushtaraklikning o'ziga xos asoslari mavjud ekani. Bunday adabiy hodisa qadimgi turkiylar uzoq asrlar davomida yunon, fors, arab, gruzin, rus – slavyan va boshqa xalqlar bilan turli ijtimoiy–siyosiy aloqada bo'lganligi natijasi ekani. Shuningdek, urush va nizolar tufayli turkiylar bu mamlakatlarda hukmronligini o'rnatishi, tub aholi bilan chatishib, qo'shilib ketishi ham ularning adabiy qahramonlari boshqa xalqlar adabiyotiga singishuviga sabab bo'lgani.

4-mavzu. Qadimgi afsona va rivoyatlar islomgacha bo'lgan davr adabiyotini o'rganishning muhim manbai sifatida

Tarixiy manbalarga asoslanib, turkiy qabilalarning qadimda eng rivojlangani va jahon tarixida sezilarli iz qoldirganlarini kimmer va skiflar deb atashga asos mavjudligi. Kimmer va skiflarning turmush tarzi antik yunon manbalarida qalamga olingani. Gerodot «Tarix»ining to'rtinchi kitobi to'la skiflarga bag'ishlangani. Turkiy adabiyotda afsona va rivoyatlar, xususan, «Tomir» («Tumaris») afsonasi, «Shiroq» («Sirak»), afsonasi, «Zarina va Striangey» kabi rivoyatlarda qadimgi trkiy xalqlarning hayoti, yashash tarzi, diniy e'tiqodlari aks etganligi.

5-mavzu. O'g'uzhoqon haqidagi manbalar va ularni qiyosan o'rganish muammolari

Turkiy urug'lar va qabilalarning shakllanishi bir necha eposlarda o'z ifodasini topgani. Masalan, «Alpomish», «O'g'uznoma», «Qo'rqut ota kitobi», «Manas», «Maaday Qora» kabi eposlar shunday xususiyatga egaligi. Bu dostonlarda turkiylarning donishmand oqsoqoli yoki urug' boshlig'i obrazi yaratilgan bo'lib, ular urug'larni birlashtirish, ahilligini ta'minlash, ruhlantirishdek ulug' maqsad bilan yashaganligi. Qabilalarning shakllanish davrini aks ettirgan eposlar bizning zamonamizda turli millat folklorshunoslari tomonidan tiklangan yoki ular turli xalqlar adabiyotiga nisbat berilishidan qat'iy nazar ular barcha turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi hisoblanishi. Chunki, ularda turkiy-larning hali turli millatga ajralib, shakllanmagan davrlaridagi hayot tarzi, urf-odati, orzu-umidlari ifodalangani.

O'g'uzxon obrazining tarixiy va badiiy talqinlari mavjudligi. Rashididdin «Jome' at-tavorix» kitobida turkiy qavmlarning yuzaga kelishi hamda 24 turk qavmiga nom berilishi bilan bog'liq bir necha rivoyat hamda afsonalarni keltirilgani. Bu asarda O'g'uzxon shaxsiyatiga ham alohida e'tibor qaratilgani. Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» asarida ham O'g'uzxonning turkiylar tarixidagi o'rni keng yoritilgan. Har ikki kitobda O'g'uzxon haqida berilgan rivoyatlar o'rtasida mantiqan yaqinlik borligi. Bu mavzu Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai turk» asarida ham yoritilganligi.

6-mavzu. Qadimgi turkiy adabiyoning dostonlar davri

Turkiy qavmlar ko'p va ular katta hududlarda yashab kelayotganidek, qadimiylik qatlamlari tasvirlangan dostonlarning ko'lami ham kengligi. Xususan, «Manas», «Qo'rqut ota», «Maday qora» kabi dostonlar, bu dostonlar asosan qahramonlik ruhida bitilgani, ularda qadimgi turkiylarning turmush tarzi, afsonaviy bahodirligi, diniy urf-odat va marosimlari, o'z yurtlarini mustahkamlash va dushmanlarga qarshi kurashdagi jasorati tasvirlangani.

7-mavzu. Bitiktoshlar davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, nasr va nazm muammosi.

Tosh va yozma badiiy bitiglarning topilishi turkiy adabiyot tarixida yangi davrni boshlab berishi, Markaziy Osiyoga arablarning kelishiga qadar yaratilgan yozma adabiyotni o'rganishda O'rxun va Enasoy daryolari yoqasidan topilgan tosh bitiglar alohida ahamiyatga egaligi. Turkiy halqlarning bu adabiy-tarixiy yodgorliklari VI-VIII asrlarga oid ekani, ular turk runiy yozuvlari deb yuritilishi. Turkiylarda tosh bitiglar tarixi uzoq tarixga egaligi.

Runiy yozuvda bitilgan adabiy tarixiy bitiklar Sibir, Mo'g'ulistonning turli joylaridan, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Qofqaz, Volga bo'yi, shuningdek, Yevropadan topilsa-da, u tarixda O'rxun-Enasoy yodgorligi nomi bilan yuritilishi. Bu yodgorliklarning topilish tarixi, bitiklarning adabiy-tarixiy qimmati darslik va qo'llanmalarda, bir necha ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgani.

8-mavzu. Mahmud Koshg'ariy va uning «Devonu lug'otit-turk» asari Turkiy adabiyotning qadimgi davrini o'rganish manbai sifatida

So'z san'atining dastlabki janrlari insonning nutq madaniyati rivojlanishi bilan tug'ilgani, turkiy xalqlar adabiyotining tarixi juda qadimiy bo'lganidek, adabiy janrlarining tug'ilishi va shakllanish jarayoni ham uzoq tarixga ega ekani. Badiiy adabiyotning har bir shakli ma'lum bir janr asosida yuzaga kelishi, turkiy xalqlarning islomgacha bo'lgan davrdagi adabiyotida ham rang-barang janr va vazn xususiyatlari mavjudligi.

O'zbek adabiyoti tarixining qadimgi davrlari yoki eng qadimgi adabiy yodgorliklarini o'rganishga bag'ishlangan darslik va qo'llanmalarda, shuningdek, boshqa tadqiqotlarda ham «maqol», «marsiya», «munozara», «afsona», «asotir», «rivoyat» kabi janrlar to'g'risida so'z yuritilishi. Qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining janr va vazn xususiyatlarini aniqlash hamda adabiy atama sifatida nomlashga asos bo'ladigan manbalar mavjudligi, Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobidagi adabiy atamalar hamda ayrim adabiy janrlarning nomini ifodalashi mumkin bo'lgan so'zlar, qadimgi tosh va yozma bitiklar shuningdek, qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi mazmun, g'oya hamda obrazlarning tadrijiy takomili natijasi: Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik» dostonidagi ayrim tasvir va atamalar mavzuni yoritishga xizmat qilishi.

III. Amaliy (yoki seminar yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qadimgi turkiylarning diniy marosimlari.
2. «Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi.
3. Turkiy adabiyotda Alp Er To'nga obrazi
4. Qadimgi miflar va afsonalar. Ularning mazmuni va saqlanish manbalari
5. Qadimgi turkiy qahramonlik afsona va rivoyatlar
6. Turkiy adabiyotning qadimgi davrining dostonlar davri
7. Turkiy adabiyot tarixida yangi davr yoki qabr toshlari davri adabiyoti
8. Kultegin, Bilga xoqon va To'nyuquq yodgorliklari mazmuni. Badiiy xususiyatlari, matn uslublari
9. Turkiy adabiyotning qadimgi davrining jahon xalqlari adabiyoti bilan mushtaraklik jihatlari
10. Turkiylar obrazi qadimgi guruzin, german, rus va slavyan xalqlari adabiyotida.
11. Turkiy adabiyotning qadimgi davrining janr xususiyatlari.
12. Turkiy adabiyotda fol kitoblari va ularning ahamiyati.
13. "Devonu lug'ati-t–turk" asaridagi adabiy parchalar. Mazmuni, janr xususiyatlari.
14. "Qutadg'u bilig" dostoni. Doston tarkibi, timsollar doirasi va ramziy mazmuni.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish uchun kutubxonada ishlash.
2. "Avesto"ning qismlarini tanlab o'rganish.
3. O'zbekistonda avestoshunoslikka oid ilmiy asarlar ro'yxatini tuzish.
4. "Avesto"dagi mifologiyani o'rganish
5. Ziyonet.uz internet tarmog'idan "Avesto' haqida ma'lumot olish va uni o'rganish.
6. H.Homidovning "Avesto fayzlari" asarini o'rganish.
7. "Manas" qirg'iz xalq eposi.
8. Dostonni o'qib, Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai tarokima» asaridagi O'g'uzxon fasli bilan qiyoslash.
9. Alp er to'nga shaxsiyati
10. A.Abdurahmonovning «Alp Er To'nga Afrosiyob jangnomasi» kitobini o'qib, konspetlashtirish
11. Ziyonet.uz internet tarmog'idan turk adabiyoti tarixini o'rganish
12. Turkiy adabiyotning qadimgi davrida qo'shiq namunalari.
13. «Devonu lug'otit-turk» dagi qadimgi qo'shiq namunalaridan to'rtta to'rtlikni yodlab, matnini tahlil qilish
14. Ziyonet.uz internet tarmog'idan turk adabiyoti tarixini o'rganish

	15.Turkiy adabiyotning qadimgi davrida janrlarning shakllanishi. 16.Devonu lug'otit turk»dagi qadimgi afsona (sav) namunalaridan biri matnini yozib tahlil qilish. 17.Ziyonet.uz internet tarmog'idan totar adabiyoti tarixini o'rganish 18.Turkiy adabiyotning qadimgi davrida dostonlar. 19. Turkiy adabiyotda mavjud qadimiy dostonlarni o'qib, ularni qiyosiy tahlil etish
3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Turkiy adabiyotning qadimgi davrining tarixiy taraqqiyoti, yutuq va kamchiliklari, istiqboli haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Islomgacha bo'lgan davrda yaratilgan asarlarining g'oyaviy olami, mazmun-mohiyati va badiiy barkamolligini anglash va shu haqda mulohaza yuritish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;*** • Qadimgi turkiy adabiyot asarlarining bugungi va ertangi kun uchun ahamiyatini bilish ba o'rgatish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • audio va videoma'ruzalar; • taqdimot; • matn ustida ishlash.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**Asosiy adabiyotlar:** 1. Абдурахмонов А. Ўзбек адабиёти тарихининг қадимги даври.– Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. 2. Абдурахмонов А. Қадимги туркий адабиёт. Маърузалар матни. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2004. 3. Абдурахмонов А. Туркий халқлар оғзаки ижоди. Қўув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2004. 4. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Т.: Ўқитувчи, 1976. 5. Sulaymonov I. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. O'quv qo'llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2019. 6. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. I жилд. – Т.: Фан, 2003. 7. Ўзбек адабиёти тарихи. V томлик. Том I. – Т.: Фан, 1977.

	Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Алимухамедов А. Антик дунё тарихи.–Т.: «Ўқитувчи»,1969, 400 б. 2. Баскаков Н. А. Тюркская лексика в «Слове ополку Игореве».- Отв. Ред. А. Н. Кононова. – М.: «Наука», 1985, - 207 ст. 3. Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг антик даври.: Дорилфунун ва дорилмуаллимлар учун дарслик. Т. : Ўқитувчи, 1991, 472 б. 4. Баходирхон А. Шажараи турк.: Масъул муҳаррир ва сўз боши муаллифи Б.А.Ахмедов. – Т.: Чўлпон, 1990, - 192 б. **Axborot manbalari (saytlar):** www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali. www. literature.uz https://www.youtube.com/watch?v=qvEGE8Gyfes https://www.youtube.com/watch?v=UbhRuLMQ8s8&t=287s https://www.youtube.com/watch?v=jWNsSXYa9zs https://www.youtube.com/watch?v=H7VDk_kh3Ko
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2021-yil __-_____dagi __-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar**: I.I.Sulaymonov – SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent.
9.	**Taqrizchilar:** S.Tohirov – SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. (ichki) S.Yo'ldosheva – Sam VXTXMO va QTI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. (tashqi)